

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

2026-YIL
IYUN/6-SON, IV-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

EPOKSID-DIAN VA FENOLFORMALDEGID GIBRID BOG'LOVCHISI ASOSIDA YUQORI YEYILISH VA KORROZIYABARDOSH ANTIFRIKSION QOPLAMALAR YARATISH	10
Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNI BOSHQARISH VA TARTIBGA SOLISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	16
Mamayusupova Dilovarxon, Maxmudaliyeva Manzuraxon, Toyirjonov Shokirjon	
FRANSUZ, RUS VA O'ZBEK TILLARI SPORT TURIZMI TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK VA LINGVOMADANIY TADQIQI.....	20
Ma'rupova Gulnoz	
МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОЦЕНКЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ХРАНЕНИЯ ПЛОДОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	24
Muratov Abdulaziz Uktamovich	
DIGITAL TRANSFORMATION AND EMERGING TRENDS IN INFORMATION TECHNOLOGY.....	29
Daminova Barno, Esmurodova Zarnigor, Boltayev Javohir, Kuziboyeva Lobar	
FRANSUZ, RUS VA O'ZBEK TILLARI SPORT TURIZMI TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK VA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI.....	34
Ma'rupova Gulnoz Umarjonovna	
MINTAQA IQTISODIY O'SISHIDA XIZMATLAR SOHASI TARKIBIY O'ZGARISHLARINING STATISTIK TAHLILI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA	38
Raximov Alisher Ibragimovich	
KREDIT SKORINGIDA XULQ-ATVOR OMILLARINI BAHOLASH: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY QO'LLANILISHI	45
BekmurodovAbbos Amiriddinovich	
ECONOMETRIC INVESTIGATION OF AGRICULTURAL PRODUCTION ACTIVITIES IN KARAKALPAKSTAN REPUBLIC.....	49
Makhambetova Uringul Reimbaevna	
GETEROKOMPOZIT POLIMER QOPLAMALAR SIRTINING SHAKLLANISHI VA ULARNING PAXTA TOLALARI SIFATIGA TA'SIRINI TADQIQ ETISH	55
Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich	
GRADIENT BOOSTING (XGBOOST) VA TEGISHLILIK FUNKSIYALARIGA TAYANGAN STATISTIK KLASSIFIKATSIYA USULINING SOLISHTIRMA BAHOLANISHI	62
Ergasheva Ma'mura Gayratovna	
QURILISH SOHASIDA KICHIK VA YIRIK BIZNES SUBYEKTLARI INTEGRATSIYASI SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	69
Axmedova Nilufar Shuxratovna	
LARAVEL PLATFORMASIDA NEYROTARMOQLARNI QO'LLASH ORQALI FOYDALANUVCHI XATTI-HARAKATLARINI BASHORAT QILISH VA TAVSIYA TIZIMLARINI YARATISH	74
Jo'rayev To'xtasin, Abdusattarov Odiljon, Boymatov Mexrojiddin, Maxkamov A'zimjon, Nabijonov Abduqodir	
BEHIND THE 30% TARGET: A CONCEPTUAL FRAMEWORK FOR WOMEN'S ACADEMIC LEADERSHIP IN UZBEK UNIVERSITIES	82
Farida Nishanova	
QURILISH SANOATIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH: NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR	87
Abdullayev Axror Jaxbarovich	
BALIQCILIKDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI.....	92
Iskandar Yunusov	



TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASHDAGI BANK KREDIT RISKLARINI PASAYTIRISH YO'LLARI.....	98
Toymuxamedov Ibrohim Rixsiboyevich	
KO'P KVARTIRALI UY-JOY FONDINI BOSHQARISHDA PROFESSIONAL XIZMAT KO'RSATISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEKANIZMLARI	108
Rahimov Qodir Ergashevich	
НИЗКОУГЛЕРОДНАЯ ЭНЕРГЕТИКА КАК НАПРАВЛЕНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ МОДЕРНИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА	115
Расулкулов Жамшидбек Акрамкулович	
ERKIN IQTISODIY ZONALARNING MOHIYATI VA ULARNING PRINSIPLARI	124
Ubaydullayev Muxammadjon, Akbarov Diyorbek	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MEHMONXONA XIZMATLARINI AVTOMATLASHTIRISHNING IQTISODIY AFZALLIKLARI.....	128
Raxmonova Nigina Anvarovna	
EMPLOYEE WELL-BEING IN POST-REFORM UZBEKISTAN: A SYSTEMATIC LITERATURE REVIEW AND RESEARCH AGENDA	132
Farida Nishanova	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MEKANIZMLARI	137
Inobatov Abror Boshlarovich	
REAL SEKTORNING INSTITUTSIONAL TARKIBI VA TRANSFORMATSIYA TENDENSIYALARI.....	144
Isroilova Muhabbat Rustamjon qizi	
ОБЕСПЕЧЕНИЕ РОСТА ЭКОНОМИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА ПРЕДПРИЯТИЯ (НА ПРИМЕРЕ ФИРМЕННЫХ МАГАЗИНОВ «SAG EXPRESS»)	151
Мусаева Шоира Азимовна	
O'ZBEKISTONDA YALPI ICHKI MAHSULOT DINAMIKASINING ICHKI ISTE'MOLGA TA'SIRI	161
Djumayev Zayniddin Axmedovich	
O'ZBEKISTON TASHQI IQTISODIY FAOLIYATIDA KICHIK BIZNES O'RNINI OSHIRISHNING STATISTIK USULLARDAGI TAHLIL.....	166
Yadgarova Nigora Rixsulla qizi	
KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLARNI REAL VAQT REJIMIDA VIZUALIZATSIYA QILISH UCHUN ADAPTIVE M4 GEOMETRIK-PERSEPTUAL AGREGATSIYA ALGORITMI.....	170
Nuraliyev Faxriddin, Hotamov Farhod, Muxamedjonova Zuxra	
АЛГОРИТМ ОПТИМИЗАЦИИ ПРОПУСКНОЙ СПОСОБНОСТИ В РАЗВЕТВЛЁННЫХ ПАССИВНЫХ ОПТИЧЕСКИХ СЕТЯХ (PON).....	175
Киямов Рахматулло Рузиевич	
MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI ORQALI HUDUDLARNING INVESTITSION SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISH.....	180
Xolmurotova Diyoraxon, Xoliyorova Shoxista	
OZIQ-OVQAT XAVSIZLIGINI TA'MINLASHDA DAVLAT STRATEGIK ZAXIRALARINING O'RNINI	184
Bazarov Nazirjon, Normurodov Alibek	
O'ZBEKISTONDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA UNI BARTARAF ETISHDA TADBIRKORLIKNING ROLI: IQTISODIY TAHLIL VA TENDENSIYALAR.....	190
Uzakov Sh. Sh.	
MINTAQADA TABIIY KAPITALNI JAMG'ARISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	196
Raximov Faxriddin Shavkatovich	
СОВРЕМЕННЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ УГРОЗЫ ФИНАНСОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ СТРАХОВЫХ КОМПАНИЙ И ПРИЧИНЫ ИХ ВОЗНИКНОВЕНИЯ	201
Петр Ким	



УЧЁТ ВЫБЫТИЯ ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ФИНАНСОВЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ ОРГАНИЗАЦИИ.....	207
Туракулов Шахриёр, Пашаходжаева Дилдора HUDUDIY IQTISODIY O'SISH DRAYVERLARINI KO'P OMILLI REGRESSION TAHLIL ASOSIDA MIQDORIY BAHOLASH (BUXORO VILOYATI TUMANLARI MISOLIDA).....	213
Ergashev Sherali Erali o'g'li NOAN'ANAVIY PUL-KREDIT SIYOSATI INSTRUMENTLARINING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA QISQA MUDDATLI TA'SIRINI EMPIRIK BAHOLASH	217
Djumonov Dilshod Safaroliyevich O'ZBEKISTONDA YALPI ICHKI MAHSULOT DINAMIKASINING ICHKI ISTE'MOLGA TA'SIRI	222
Djumayev Zayniddin Axmedovich JIZZAX VILOYATI KICHIK BIZNES TIZIMINING EMPIRIK MA'LUMOTLAR BAZASI VA TAVSIFIY STATISTIK TAHLILI	227
Atamuratova Gulrux Muzafarovna KIMYO SANOATI KORXONALARIDA DIVERSIFIKATSIYA SAMARADORLIGINI INTEGRAL BAHOLASH VA 2032-YILGACHA PROGNOZLASH.....	232
Razikov Otabek Rustamovich ИССЛЕДОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ РАЗВОЛОКНЕНИЯ ПУТАНКИ	240
Одилхонова Нафиса, Атаханов Авазбек SOLIQ BOSHQARMALARIDA AGILE MENEJMENT TAMOYILLARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARINING EMPIRIK-STATISTIK TAHLILI	247
Sayfiyev Jasur Ravshanovich O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT XARIDLARI TIZIMIDA RAQOBAT MUHITI VA SHAFFOFLIKNI TA'MINLASHNING MOLIYAVIY-IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	253
Rizoqulova Elnora Otabek qizi YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING MINTAQAVIY OMILLARI.....	260
Ergashev Erkin Iroqovich QULOQ CHANOG'I VA YUZ YON TASVIRI ASOSIDA SHAXSNI IDENTIFIKATSIYALASH.....	264
Mamatov Narzillo, Samijonov Abdurashid, Abdullaeva Barno, Usarov Jurabek ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРИМЕНЕНИЯ РОТОРНО-УПРАВЛЯЕМЫХ СИСТЕМ (РУС) И ВИНТОВЫХ ЗАБОЙНЫХ ДВИГАТЕЛЕЙ (ВЗД) ПРИ БУРЕНИИ НЕФТЯНЫХ И ГАЗОВЫХ	271
Жахонгир Эркин угли Абдиганиев, Шерали Халлокович Умедов KO'KRAK BEZI SARATONINING MOLEKULAR SUBTIPLARINI PROGNOZ QILISHDA MULTIPARAMETRIK MRT VA SUN'IY INTELLEKT MODELLARINING INTEGRATSIYASI	282
Sulaymanov Dilshod, Alikariyev Isroiljon ERKIN IQTISODIY HUDUDLAR VA KICHIK SANOAT ZONALARINI TASHKIL ETISH HAMDA TAKOMILLASHTIRISH ("URGUT" ERKIN IQTISODIY ZONASI MISOLIDA)	288
Yazdanov Mirjaxon G'ayrat o'g'li IQLIM O'ZGARISHLARINING HUDUD BARQAROR RIVOJLANISHIGA TA'SIRINI BAHOLASH REYTINGI: NAZARIY-USLUBIY YONDASHUV	294
Madenova Elmira Nizamatdinovna TIJORAT BANKLARI FOYDASINI SOLIQQA TORTISHNING NAZARIY JIHATLARI	300
Turanov M. Sh.	



TIJORAT BANKLARI FOYDASINI SOLIQQA TORTISHNING NAZARIY JIHATLARI

Turanov M. Sh.

Termiz davlat universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Tijorat banklari foydasini soliqqa tortish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlarning ilmiy-nazariy asoslari muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda tijorat banklari foydasini soliqqa tortishning iqtisodiy mohiyati hamda uning o'ziga xos xususiyatlari turli yondashuvlar asosida yoritilgan. Tijorat banklari foydasini soliqqa tortishning fiskal ahamiyati ortib borayotgan sharoitda ushbu yo'nalishning ayrim nazariy jihatlari tahlil qilinib, tijorat banklari foydasini soliqqa tortishning nazariy asoslariga oid ilmiy xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banki, foyda, tijorat banklari foydasi, soliq, foyda solig'i, soliq stavkasi.

Аннотация. Научно-теоретические подходы к экономическим отношениям, связанным с налогообложением прибыли коммерческих банков, имеют важное значение. В трудах зарубежных и отечественных ученых представлены различные подходы к раскрытию экономической сущности и особенностей налогообложения прибыли коммерческих банков. В условиях возрастающей значимости фискальной функции налогообложения прибыли коммерческих банков исследованы отдельные теоретические аспекты налогообложения прибыли, формируемой в результате деятельности коммерческих банков, и сформулированы выводы, раскрывающие теоретические основы налогообложения прибыли коммерческих банков.

Ключевые слова: коммерческий банк, прибыль, прибыль коммерческих банков, налог, налог на прибыль, налоговая ставка.

Abstract. Scientific and theoretical approaches to the economic relations associated with the taxation of commercial banks' profits are of considerable importance. Studies conducted by foreign and domestic scholars present different approaches to explaining the economic essence and distinctive features of the taxation of commercial banks' profits. In the context of the increasing fiscal significance of taxing commercial banks' profits, selected theoretical aspects of profit taxation have been analyzed, and conclusions have been formulated regarding the theoretical foundations of the taxation of commercial banks' profits.

Keywords: commercial bank, profit, commercial banks' profit, tax, corporate income tax, tax rate.

KIRISH

Globalashuv, turli iqtisodiy kutilmalarning keskin o'zgarishi hamda jahon moliya tizimidagi volatillik xavfining yuqoriligi sharoitida xalqaro va milliy darajada tijorat banklarining barqaror faoliyati ularning moliyaviy holati bilan uzviy bog'liqligining ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Mazkur ahamiyat tijorat banklari faoliyatining tabiatiga ko'ra foyda olish va uni barqaror shakllantirish bilan uyg'unlashgan. Davlatning iqtisodiy siyosatini qo'llab-quvvatlashda tijorat banklarining barqaror faoliyat yuritishi, foyda olishi hamda uni muntazam oshirib borishini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklari foydasining iqtisodiy atributlari, shakllanishi va amaliy jihatlari qator olimlar va mutaxassislar tomonidan yoritilgan. Jumladan, iqtisodchi olima T.M. Kosterina "bank foydasi"ni yakuniy moliyaviy natija sifatida tavsiflab, uni balansda joylashishi nuqtayi nazaridan ko'rib chiqqan hamda passivda aks ettirilishi bilan izohlagan¹. G.G. Karobova esa tijorat banklari foydasining shakllanishi va taqsimlanishini tadqiq etib: "Tijorat banking foydasi daromadning xarajatlardan oshgan ko'rinishidagi moliyaviy faoliyat yakuni hisoblanadi"², – deb ta'kidlaydi.

Xorijlik olimlar I.A. Mayburov va A.M. Sokolovskayalarning ta'kidlashicha, "Foyda solig'i iqtisodiy samaradorlik talabiga mos keladi. Chunki foyda solig'ida foyda, ya'ni korxonaga kapitalining boshlang'ich o'lchami emas, balki kapital daromadi soliqqa tortiladi. Soliqqa tortiladigan foyda to'g'ri hisoblansa, bunday

1 T.M.Kosterina. Банковское дело: Учебно-практическое пособие. – М.: Изд. центр ЕАОИ, 2009. –с.263.

2 Г.Г.Коробова. Банковское дело: Учебник. – М.: Экономистъ , 2006. – с.192.



solliqqa tortish biznesni rivojlantirishga to'sqinlik qilmaydi va jamiyat farovonligi asoslariga putur yetkazmaydi.”³

L.G. Batrakova xulosasiga ko'ra, “Umuman olganda, bank ixtiyorida qolgan foyda uchta «global» tarkibiy qismga bog'liq: daromadlar, xarajatlar va budjetga to'lanadigan soliqlar.”⁴

Iqtisodchi olim Sh.A. Tashmatov tijorat banklarining foyda solig'iga baho berar ekan: “Tijorat banklari to'laydigan soliqlar orasida foyda solig'i eng yirik soliqlardan biri hisoblanadi. Ushbu soliq tijorat banklarining jami to'laydigan soliqlari tarkibida salmog'ining yuqoriligi, shuningdek, hisoblanishining murakkabligi jihatidan ham muhim ahamiyatga ega”⁵, – deb ta'kidlaydi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy fikrlarga tayangan holda qayd etish joizki, tijorat banklari foydasini soliqqa tortishga doir tadqiqotlar muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

TADQIQIOT METODOLOGIYASI

Tijorat banklari foydasini soliqqa tortishning ilmiy-nazariy asoslari xorijiy va milliy adabiyotlar hamda tadqiqot materiallari asosida o'rganilgan. Tadqiqot jarayonida qiyosiy va tarkibiy tahlil, guruhlashtirish hamda taqqoslash usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklarining foydasini soliqqa tortish nuqtai nazaridan turli qarashlar mavjud bo'lib, mazkur iqtisodiy voqealiklar bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Biroq tijorat banklariga xos atributlar, jumladan, faoliyatida alohida iqtisodiy-huquqiy talablarning mavjudligi, iqtisodiy jarayonlar o'sish sur'atidagi o'zni, moliyaviy resurslarni taqsimlash imkoniyatining mavjudligi, tizimdagi moliyaviy nobarqarorliklarning yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan xavfning yuqoriligi, Markaziy bank tomonidan uzluksiz nazoratning amalga oshirilishi, mamlakat to'lov tizimining asosiy ishtirokchisi ekanligi hamda faoliyati uchun majburiy iqtisodiy me'yorlarning belgilanganligi kabi holatlar boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan ularning foydasini soliqqa tortishda alohida xususiyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Mazkur holatda tijorat banklari foydasini soliqqa tortish masalasiga e'tibor qaratish davlat fiskal siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan, tijorat banklari foydasini soliqqa tortishning nazariy tushunchasini ilmiy jihatdan keng o'rganish maqsadida mamlakatimiz va xorijlik iqtisodchi olimlarning ilmiy yondashuvlari, ilmiy izlanishlari natijalari hamda tijorat banklari foydasini soliqqa tortishga oid ilmiy-nazariy qarashlarini kengroq tadqiq etishga e'tibor qaratamiz.

Bank foydasini soliqqa tortish nazariyasi soliq nazariyalari tizimida alohida ahamiyatga ega bo'lib, tijorat banklarining iqtisodiy faoliyati davomida yaratilgan yangi yoki qo'shilgan qiymatning tarkibiy qismi hisoblangan foydaning markazlashgan pul fondiga muntazam ravishda muayyan qismini davlat tomonidan iqtisodiy dastaklar, xususan, soliqlar vositasida qayta taqsimlash zarurligi to'g'risidagi ilmiy qarashlar yig'indisini ifodalaydi.

Mazkur masala umumiy soliq nazariyalari, korporativ foyda solig'i nazariyasi, davlat moliyasi hamda moliyaviy barqarorlik konsepsiyalari bilan chambarchas bog'liq.

Bank foydasini soliqqa tortish nazariyasining dastlabki masalasi sifatida tijorat banklari foydasini soliqqa tortish zaruriyatini foydani soliqqa tortish evolyutsiyasi asosida quyidagicha talqin qilish mumkin.

Tarixiy jihatdan klassik soliq nazariyasining dastlabki namoyondalari A. Smit va D. Rikardo soliqni mehnat qiymati hamda narx asosida tadqiq etgan. A. Smitning fikriga ko'ra, qiymat nafaqat mehnat xarajatlarini, balki foydani, shuningdek kapital foizi va yer rentasini ham o'zida mujassam etadi. Shunday ekan, soliqqa tortish aniq bir sinfga emas, balki foydani turli shakllarda yuzaga keltiradigan barcha omillarga, ya'ni mehnat, kapital va yerga nisbatan qo'llanilishi lozim.

Zamonaviy nuqtai nazardan, tijorat banklari foydasini soliqqa tortish masalasi shundan iboratki, bank xo'jalik yurituvchi subyekt sifatida bank faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxs hisoblanadi. Tijorat banklarining asosiy maqsadi foyda olishga qaratilganligi bois, obyektiv ravishda ushbu natija ularning foydasini bozor tamoyillari asosida soliqqa tortish zaruriyatini anglatadi.

Ma'lumki, tijorat banklari muomaladagi pul miqdorini multiplikatsiya qilish imkoniyatiga ega bo'lgan yagona moliyaviy institut hisoblanadi. Shuning uchun ular boshqa moliya institutlaridan asosiy farqli jihatlarni hamda iqtisodiyot uchun muhim xususiyatlarni o'zida mujassam etadi. Mazkur jihatlar pul multiplikatori samarasi natijalari bilan uzviy bog'liq. Shu sababli tijorat banklari foydasini soliqqa tortish zaruriyati chuqur ilmiy asoslarga ega.

Mohiyatan, tijorat banklari foydasini soliqqa tortish zaruriyatini quyidagi omillar asosida ifodalash mumkin:

3 Майбуров И.А ва Соколовская А.М. Теория налогообложения. М:ЮнитиДана, 2011. стр 401

4 Батракова Л.Г. Экономический анализ деятельности коммерческого банка М: Логос 2005. стр 320

5 Тошматов.Ш.А. Тижорат банкларини солиққа тортиш хусусиятлари. Soliq solish va buxgalteriya hisobi jurnali. №8 (86), 2013. 22-bet



- soliqqa tortishning adolatlilik tamoyili bo'yicha;
- soliqning fiskal funksiyasi bo'yicha;
- makroiqtisodiy tartibga solish omili bo'yicha;
- bankning muhim moliyaviy institut sifatidagi o'rni bo'yicha.

Soliqqa tortishning amaliy ifodasi sifatida adolatlilik tamoyilini yuzaga chiqarish maqsadida xo'jalik yurituvchi subyektlarning tadbirkorlik faoliyatidan olingan moliyaviy natijalari yakuni bo'yicha, asosan, foydasidan soliq to'lagani kabi, kredit-vositachilik operatsiyalari orqali daromad oladigan tijorat banklari ham iqtisodiyotning tarmoq va sohalari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash maqsadida soliq to'lashi zarur. Chunki soliq tizimining adolatlilik tamoyili asosida moliya bozorida, aniqrog'i, uning tarkibiy qismi hisoblangan pul va kapital bozorida, shuningdek, iqtisodiyotning real sektoriga nisbatan soliq yukining ratsional darajada taqsimlanishiga erishish muhimdir. Aks holda, foydani shakllantirish munosabatlari natijasida pul mablag'larining moliya bozoriga oqib o'tishi iqtisodiyotning real sektoriga tegishli asosiy tarmoqlardagi iqtisodiy faollikning sezilarli darajada pasayishiga olib kelishi mumkin.

Bank tizimi foydasidan olinadigan soliqlar davlat budjetining salmoqli daromad manbalaridan biri bo'lib, soliqning fiskal funksiyasi nuqtai nazaridan davlat budjeti uchun barqaror tushum sifatida qaraladi. Fiskal funksiya nuqtai nazaridan tijorat banklari foydasidan olinadigan soliq budjet daromadlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Budget taqchilligi sharoitida ushbu soliq nafaqat uni qoplash uchun zarur pul mablag'larini shakllantirish imkonini beradi, balki banklar uchun soliq ma'murchiligining minimal xarajatlari hisobiga yirik fiskal manbani shaffof va huquqiy-iqtisodiy jihatdan kafolatlangan tarzda nazorat qilish imkonini ham yaratadi. Shu bilan birga, u davlat tomonidan taqdim etilgan erkin iqtisodiy faoliyat sharoitida tijorat banklari tomonidan to'lanadigan qonuniy to'lov hisoblanadi.

Makroiqtisodiy tartibga solish jihatidan tijorat banklarining daromadlarining salmoqli qismini shakllantiradigan kredit operatsiyalari iqtisodiyotdagi muomaladagi pul massasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bunda bank foydasini soliqqa tortish orqali davlat ularning kredit resurslari manbalaridan biri bo'lgan kapitali miqdorining oshishiga va natijada kredit berish imkoniyatiga bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Bu esa makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash hamda inflyatsiyani jilovlash bilan uzviy bog'liq hisoblanadi.

Bankning muhim moliyaviy institut sifatidagi o'rni nuqtai nazaridan mamlakatimiz bank tizimida elektron to'lov tizimining **90-yillarning** oxirida muvaffaqiyatli joriy etilishi, so'ngra turli omillar ta'sirida ushbu jarayonlarning izchil davom ettirilishi va pirovardida tijorat banklari daromadlarini shakllantirish jarayonining to'liq raqamlashtirilishi soliq ma'murchiligi xarajatlarini minimal darajaga tushirishga hamda banklar foydasini shakllantirish jarayonining xufiyona iqtisodiyotdan holilik darajasini oshirishga xizmat qildi. Mamlakatimiz bank tizimi amaliyotida davlat budjetidan tijorat banklarining ustav kapitalini moliyalashtirish amaliyotining mavjudligi ham ularning muhim moliyaviy institut ekanligini tasdiqlaydi. Biroq, bank foydasiga nisbatan soliq yukining yuqori darajada bo'lishi banklarning o'z foydasini kapitalning tarkibiy qismlariga yoki kredit berish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxiralariga yo'naltirish imkoniyatini cheklashi mumkin. Bu esa iqtisodiyotning tarmoq va sohalarni tijorat banklarining o'z resurslari hisobidan zarur darajada kreditlash sur'atiga ta'sir ko'rsatishi, yalpi ichki mahsulot o'sish sur'atlarini cheklashi hamda yakuniy natijada davlat budjeti tushumlariga ta'sir etishi mumkin.

Xorijiy iqtisodchi olimlar M.M. Shadurskaya, Ye.A. Smородina, T.V. Bakunova, M.I. Lvova va I.V. Toropovalar hammuallifligidagi **“Налоги и налогообложение”** darsligida: **“Bank foyda solig'ini soliqqa tortishda muhim masalalardan biri soliq solinadigan bazani aniqlash”**⁶ deb tijorat banklari foydasini soliqqa tortish munosabatlariga soliq elementlari tushunchasidan foydalangan holda amaliy jihatdan o'z fikrlarini izohlaganligini kuzatishimiz mumkin.

Belorusiyalik tadqiqotchi olimlar O.O. Poroshina va D.V. Kozlovalar: **“...belgilangan strategik maqsadlarga erishish uchun iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini kreditlashda pasaytirilgan stavkalarini nazarda tutuvchi banklar foydasidan tabaqalashtirilgan soliq mexanizmini qonunchilikda ta'minlash zarur”**, deb ta'kidlaydilar⁷.

Bundan shu jihat ayon bo'ladiki, tijorat banklarining iqtisodiyotdagi ahamiyatini e'tirof etgan holda, ular banklar maxsus iqtisodiy institut sifatida foydasini soliqqa tortishda alohida huquqiy yondashuv muhimligini ta'kidlaganlar.

“Банковское дело и банковские операции” nomli darslikda: “Kredit qarzi qarzdor tomonidan to'langanda, u uchun yaratilgan zaxira bankning joriy daromadi sifatida tiklanadi va natijada kredit muassasasining foyda solig'ini hisoblash uchun soliq solinadigan bazani oshiradi”, deb qayd etilgan⁸

6 Налоги и налогообложение.. учебник / [М. М. Шадурская, Е. А. Смородина, Т. В. Бакунова и др.] ; М-во науки и высш. образования Рос. Федерации, Урал. гос. экон. ун-т. - 2-е изд., перераб. и доп. - Екатеринбург : [Изд-во Урал. гос. экон. ун-та], 2019. – стр 189..

7 <https://rep.polessu.by/bitstream/123456789/26975/1/Nalogooblozhenie.pdf>

8 Банковское дело и банковские операции : учебник / М. С. Марамыгин, Е. Г. Шатковская, М. П. Логинов, Н. Н. Мокеева, Е. Н.



Ushbu iqtisodchi olimlar guruhi foydani soliqqa tortish mexanizmida tijorat banklarida aktivlar sifati bo'yicha yaratiladigan zaxiralarning soliq bazasi bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlagan.

Iqtisodchi olim Z.A. Abdullayev tijorat banklari foydasini soliqqa tortish bo'yicha xulosalar keltirib: "Tijorat banklarining daromadliligi bilan foyda solig'i o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjud bo'lib, tijorat banklari bo'yicha hisoblanadigan foyda solig'i va ularning daromadliligi o'sish tendensiyasiga ega", deb ta'kidlaydi⁹.

Mazkur iqtisodchi olimning ilmiy mulohazasidan tijorat banklari foydasini soliqqa tortishda banklar foydasining oshishi foyda solig'i summasining o'sishini ta'minlaydi, degan xulosa kelib chiqadi.

Komolov O.S. fikriga ko'ra: "...budjet manfaatlarini nuqtai nazaridan qaralganda, tijorat banklari foydasini soliqqa tortish maqsadga muvofiqdir".¹⁰

Ta'kidlash lozimki, ushbu iqtisodchi olimning fikri banklar foydasini soliqqa tortish zarurligi hamda foyda solig'i to'lovchi xo'jalik yurituvchi subyektlar orasida tijorat banklari tomonidan to'lanadigan foyda solig'i budjet daromadlarini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Tijorat banklari foydasini soliqqa tortish banklar faoliyatining xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatib, bank operatsiyalarini, jumladan, asosiy operatsiyalardan biri bo'lgan kreditlash jarayonini qimmatroq yoki arzonroq amalga oshirishga olib kelishi mumkin.

"Odatda, foyda soliq to'lagunga qadar yalpi foyda va sof foydaga bo'linadi."¹¹ Ushbu yuqoridagi mulohazalardan shuni anglash mumkinki, banklar faoliyatining maqsadi va yakuniy moliyaviy natijasining muhim mezonini hisoblangan sof foydani shakllantirishda foyda solig'ining ahamiyati muhim ekanligini kuzatish mumkin.

Iqtisodchi olim D.D. Pashshaxodjayevevning fikriga ko'ra, "Foydani soliqqa tortilishi va unda foyda solig'i nomli maxsus soliqning undirilishi ushbu soliqqa bevosita aloqador bo'lgan hamda uni miqdor va sifat jihatidan ifodalovchi ko'rsatkichlarning vujudga kelishiga olib keladi. Bu ko'rsatkichlarning ayrimlari foyda solig'ini hisoblashga asos bo'lsa, boshqalari bevosita ushbu soliqning hisoblanishi, to'lanishi, korxonada qoldirilishi va boshqa jihatlarni ifodalaydi."¹² Unga ko'ra, foydani soliqqa tortishda "foyda solig'i ko'rsatkichlari" iqtisodiy tushunchasiga alohida e'tibor qaratilib, tadqiqot ishida ushbu iqtisodiy kategoriyaning mazmuni bo'yicha mualliflik ta'rifi keltirilgan.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan N.R. Fayziyeva tadqiqot ishida keltirishicha, "...foyda solig'i va iqtisodiy o'sish sur'atlari o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud bo'lib, foyda solig'i stavkasini 10 foizga tushirish iqtisodiy o'sish sur'atining 1–2 foizga oshishiga olib keladi."¹³ Yuqoridagi ta'kiddan foyda solig'i miqdori va iqtisodiy o'sishning asosiy indikatorini bo'lgan YaIM o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligi anglashiladi. Shuningdek, soliq to'lovchi yuridik shaxslar ixtiyorida foyda solig'ining qoldirilishi bo'sh aylanma mablag'lari miqdorining vujudga kelishiga, ularning iqtisodiy faolligini oshirishga va pirovardida YaIMning o'sishiga xizmat qilishi mumkin. Ammo foydani soliqqa tortishning murakkab jihati ham mavjud bo'lib, u bir vaqtning o'zida budjet tushumlarining barqarorligini ta'minlash va iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini saqlab qolishda namoyon bo'ladi.

Iqtisodchi olim N.R. Fayziyeva tadqiqot ishi davomida: "..., foyda solig'i stavkasining bir birlikka oshishi budjetga foyda solig'i bo'yicha tushumlar hajmining 1,78 birlik pasayishiga olib keladi"¹⁴ deb ta'kidlaydi. Demak, foydani soliqqa tortishda unga tegishli ko'rsatkichlarning har birining muhimligini ta'kidlagan holda, foyda solig'i stavkasining iqtisodiy ahamiyatini alohida o'rgangan.

Ma'lumki, foydani soliqqa tortish yakuniy moliyaviy natija bilan bog'liq hisoblanadi. Shu boisdan foydani soliqqa tortish munosabatlari investitsion faoliyat va kapitalni jamg'arish jarayoniga bevosita ta'sir qiladi. Mazkur iqtisodiy munosabatlar fiskallik xususiyati bilan bir qatorda iqtisodiyotni tartibga solish vositasi sifatida ham qaraladi.

Mahalliy iqtisodchi olim D.J. Babajanov xulosasiga ko'ra, "Soliq tizimida korxonalar va tashkilotlardan olinadigan foyda solig'i milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Buning sababi shundaki, foyda solig'i mahalliy ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish, eksportni

Прокофьева, А. Е. Заборовская, А. С. Долгов ; под ред. М. С. Марамыгина, Е. Г. Шатковской ; Министерство науки и высшего образования Российской Федерации, Уральский государственный экономический университет. – Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2021. – стр 188

9 Абдуллаев З.А. Tijorat banklarini soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari b'uyicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun e'zilgan dissertatsiya avtoreferati.– : 2019. – 17 bet;

10 Комолов О.С. Tijorat banklarini soliqqa tortish tartibini takomillashtirish masalalari: **Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun e'zilgan dissertatsiya.**-To'shkent, 2009

11 Bektemirov A., Omonov A.A., Xaydarov Z.Sh., Niyozov Z.D. "Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish" fanidan o'quv qo'llanma. – Samarqand: SamISI, 2020. 268-bet.

12 Пашшаходжаева Д.Д. Фойда солиғи ҳисоби ва аудитини такомиллаштириш: иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати.-Фарғона, 2021. 12-бет.

13 Файзиёва Н.Р. Фойда солиғини иқтисодий ўсишга таъсирини моделлаштириш: иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати.-Тошкент, 2022. 11-бет.

14 Файзиёва Н.Р. Фойда солиғини иқтисодий ўсишга таъсирини моделлаштириш: иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати.-Тошкент, 2022. 19-бет

ko'paytirish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning asosiy instrumenti hisoblanadi.”¹⁵

D.J. Babajanovning ushbu xulosasi O'zbekistonda banklar uchun ham soliq mexanizmini takomillashtirish nuqtai nazaridan muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Buning ahamiyati shundaki, birinchidan, respublikamiz tijorat banklari faoliyatini rag'batlantirishga yetarli e'tibor qaratish, ikkinchidan, tijorat banklarining transformatsiyalashuvi sharoitida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini ta'minlash hisoblanadi.

Yana bir mahalliy iqtisodchi olim Z.O. Axrorov ilmiy ishi natijalarida: "...tijorat banklari foydasini soliqqa tortishda kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga shakllantirilgan rezervlar uchun soliq chegirmalariga cheklov o'rnatilmagan bo'lgan holatlarda kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga shakllantirilgan rezerv miqdori foyda solig'i stavkasi darajasiga bog'liqdir", deb qayd etadi.¹⁶

Z.O. Axrorovning fikridan aniq ko'rinadiki, tijorat banklari foydasini soliqqa tortish mexanizmi foyda solig'ini hisoblashda ishtirok etuvchi soliq elementlari o'rtasidagi aloqadorlikni aks ettiradi. Yuqoridagilar asosida ilgari surgan gipotezasini tasdiqlab, "Bu shuni anglatadiki, soliqqa tortish maqsadlarida umumiy rezervlar chegirib tashlanganda, kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga majburiy rezervlarning korporativ foyda solig'i stavkasi bilan ijobiy bog'liqligi va yo'qotishlarga rezervlar miqdorining soliq stavkasi darajasida o'sishi to'g'risidagi asosiy gipoteza tasdiqlandi"¹⁷ deb qayd etgan.

Z.O. Axrorovning mazkur xulosasi amaliy ahamiyatga ham ega bo'lib, tijorat banklarida foydani soliqqa tortishda kreditlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan ehtimoliy yo'qotishlarga majburiy zaxiralarning hisobga olinishiga asoslanganligi alohida e'tirof etilgan. Z.O. Axrorovning fikrlaridan dastlab foydani soliqqa tortish jarayoni o'zaro bog'liq soliq elementlarining murakkab ketma-ket aks ettirish shakli ekanligi to'g'risida xulosa qilish mumkin.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, izlanishlarimiz nuqtai nazaridan quyidagi xulosani chiqarishimiz mumkin.

Demak, shuni ta'kidlash mumkinki, tijorat banklari foydasiga soliq solish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar davlatning budjet-fiskal manfaatlari, banklar faoliyatining moliyaviy barqarorligi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga qaratilgan masalalar yechimini ta'minlashi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklari foydasini soliqqa tortish davlatning fiskal manfaatlari, bank tizimining moliyaviy barqarorligi hamda iqtisodiy o'sish o'rtasidagi muvozanatni ta'minlovchi muhim iqtisodiy mexanizmlardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari tijorat banklari foydasini soliqqa tortishning nazariy asoslarini takomillashtirish hamda ushbu jarayonda iqtisodiy samaradorlik va adolatlilik tamoyillariga tayanish zarurligini ko'rsatdi.

Tijorat banklari foydasini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish maqsadida foyda solig'i bo'yicha iqtisodiy asoslangan yondashuvlarni keng qo'llash, banklarning kapitallashuvini rag'batlantiruvchi soliq instrumentlarini rivojlantirish hamda kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga shakllantiriladigan zaxiralarni soliqqa tortish tartibini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Т.М. Костерина. Банковское дело: Учебно-практическое пособие. – М.: Изд. Центр ЕАОИ, 2009. – стр. 263.
2. Г.Г. Коробова. Банковское дело: Учебник. – М.: Экономистъ, 2006. – стр. 192.
3. Майбуров И.А., Соколовская А.М. Теория налогообложения. – М.: Юнити-Дана, 2011. – стр. 401.
4. Батракова Л.Г. Экономический анализ деятельности коммерческого банка. – М.: Логос, 2005. – стр. 320.
5. Тошматов Ш.А. Тижорат банкларини солиққа тортиш хусусиятлари. // Soliq solish va buxgalteriya hisobi jurnali. – № 8 (86), 2013. – 22-бет.
6. **Налоги и налогообложение: учебник / М. М. Шадурская, Е. А. Смородина, Т. В. Бакунова и др.; М-во науки и высш. образования Рос. Федерации, Урал. гос. экон. ун-т. – 2-е изд., перераб. и доп. – Екатеринбург: Изд-во Урал. гос. экон. ун-та, 2019. – стр. 189.**
7. <https://rep.polessu.by/bitstream/123456789/26975/1/Nalogooblozhenie.pdf>
8. **Банковское дело и банковские операции: учебник / М. С. Марамыгин, Е. Г. Шатковская, М. П. Логинов, Н. Н. Мокеева, Е. Н. Прокофьева, А. Е. Заборовская, А. С. Долгов; под ред. М. С. Марамыгина, Е. Г. Шатковской; Министерство науки и высшего образования Российской Федерации, Уральский государственный экономический университет. – Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2021. – стр. 188.**
9. Abdullayev Z.A. Tijorat banklarini soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2019. – 17-bet.

15 D.J.Babajanov. Foyda solig'i ma'murchiligini takomillashtirish. Monografiya.T: "Iqtisodiyot". 2024 yil. 7-bet.

16 Axrorov Z.O. Foydani soliqqa tortish metodologiyasini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.-To'şkent, 2025. 19-бет

17 Axrorov Z.O. Foydani soliqqa tortish metodologiyasini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.-To'şkent, 2025. 19-бет



10. Komolov O.S. Tijorat banklarini soliqqa tortish tartibini takomillashtirish masalalari: iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2009.
11. Bektemirov A., Omonov A.A., Xaydarov Z.Sh., Niyozov Z.D. “Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish” fanidan o’quv qo’llanma. – Samarqand: SamISI, 2020. – 268-bet.
12. Pashshaxodjayeva D.D. Foyda solig’i hisobi va auditini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Farg’ona, 2021. – 12-bet.
13. Fayziyeva N.R. Foyda solig’ining iqtisodiy o’sishga ta’sirini modellashtirish: iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2022. – 11-bet.
14. Fayziyeva N.R. Foyda solig’ining iqtisodiy o’sishga ta’sirini modellashtirish: iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2022. – 19-bet.
15. D.J. Babajanov. Foyda solig’i ma’murchiligini takomillashtirish: monografiya. – T.: “Iqtisodiyot”, 2024-yil. – 7-bet.
16. Axrorov Z.O. Foydani soliqqa tortish metodologiyasini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2025. – 19-bet.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100